

MILLIY ANSAMBLARNING SHAKLLANISH TARIXI VA TAKOMIL BOSQICHLARI

HISTORY AND IMPROVEMENT OF NATIONAL ENSEMBLES.

ИСТОРИЯ СТАНОВЛЕНИЯ И ЭТАПЫ РАЗВИТИЯ
НАЦИОНАЛЬНЫХ АНСАМБЛЕЙ

Jo'rayeva Maftunaxon Baxtiyorjon qizi

maftunaj056@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0008-8447-6861>

Ilmiy rahbar : **Shokirov Tohirjon**

Farg'ona Davlat Universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqola milliy ansamblarning shakllanish tarixi va takomillashuv bosqichlarini, shuningdek, milliy musiqaning rivojlanishidagi Prezident farmonlari va qarorlarining ahamiyatini tahlil qiladi. O'zbekistonning mustaqillikdan keyingi davrida milliy musiqaning saqlanishi va rivojlanishi uchun amalga oshirilgan siyosiy, madaniy va ta'lim tizimidagi chora-tadbirlar muhokama qilinadi. Milliy ansamblarni shakllantirish va rivojlantirishda yuzaga kelgan muammolar va yechimlar ham ko'rib chiqilgan. Maqola, milliy musiqaning jahon madaniyati va yosh avlod tarbiyasiga qo'shgan hissasini o'rganishda muhim manba hisoblanadi.

Annotation: This article analyzes the history of the formation and stages of development of national ensembles, as well as the significance of presidential decrees and decisions in the development of national music. The political, cultural, and educational measures taken in Uzbekistan after independence to preserve and develop national music are discussed. The problems and solutions encountered in the process

of forming and developing national ensembles are also examined. The article serves as an important source for studying the contribution of national music to world culture and the education of young people.

Аннотация: Данная статья анализирует историю формирования и этапы развития национальных ансамблей, а также значимость президентских указов и решений в развитии национальной музыки. Обсуждаются политические, культурные и образовательные меры, предпринятые в Узбекистане после обретения независимости для сохранения и развития национальной музыки. Рассматриваются проблемы и решения в процессе формирования и развития национальных ансамблей. Статья является важным источником для изучения вклада национальной музыки в мировую культуру и воспитание молодежи.

Kalit so'zlar: Milliy ansambllar, milliy musiqa, Prezident farmonlari, madaniyat siyosati, musiqiy ta'lim, milliy madaniyat, rivojlanish bosqichlari, musiqiy meros.

Keywords: National ensembles, national music, Presidential decrees, cultural policy, music education, national culture, development stages, musical heritage

Ключевые слова: Национальные ансамбли, Национальная музыка, Президентские указания, Культурная политика, Музыкальное образование, Национальная культура, Этапы развития, Музыкальное наследие.

Kirish

Milliy ansambllarning shakllanishi va rivojlanishi – milliy madaniyatning ajralmas qismi sifatida, har bir davlatning madaniy merosini o'rganishda, uning tarixiy va madaniy xususiyatlarini tushunishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu mavzu ayniqsa O'zbekiston kabi boy madaniy merosga ega mamlakatlar uchun o'ziga xos dolzarb ahamiyatga ega. Milliy ansambllarning shakllanishi nafaqat musiqa san'atining rivojlanishini, balki jamiyatning ijtimoiy va madaniy holatini ham aks ettiradi.

Milliy ansamblarning shakllanish tarixi va takomillashuv bosqichlari bugungi kunda milliy musiqiy madaniyatni saqlash va rivojlantirishning zaruriy yoʻnalishlari sifatida ahamiyatga ega boʻlib, davlatning madaniyat siyosatiga asos boʻlmoqda. Ayniqsa, Prezident Farmonlari va qarorlari, madaniy merosni saqlash va rivojlantirishda muhim rol oʻynamoqda.

Bugungi kunda milliy ansambllar nafaqat musiqa sohasida, balki madaniy merosni saqlash va yosh avlodni tarbiyalashda ham muhim oʻrin tutadi. Milliy ansamblarning shakllanishi va rivojlanishi madaniyat va sanʼatni saqlashning, yangi avlodni tarbiyalashning, ularning estetik va axloqiy qarashlarini shakllantirishning oʻziga xos usulidir. Mavzu dolzarbligiga koʻra, milliy ansamblarning rivojlanishi va takomillashuvi sohasidagi zamonaviy yondashuvlar va amaliyotlar haqida kengroq maʼlumot olish zarur.¹

Milliy ansamblarning shakllanishi tarixi bir necha bosqichlarga boʻlinadi. Dastlabki bosqichlarda milliy musiqaning individual shakllari va jahon musiqasidan taʼsirlangan holatda ishlab chiqilgan. XX asrning 20-yillarida milliy musiqaning oʻziga xosliklarini saqlab qolish va uni ommalashtirish yoʻlida bir qator ijodiy va siyosiy qarorlar qabul qilindi. Bu davrda milliy ansambllar koʻpincha folklor va anʼanaviy musiqani saqlashga qaratilgan.

Milliy ansamblarning takomillashuv bosqichlari haqida biroz toʻxtaladigan boʻlsak: milliy ansamblarning takomillashuv jarayoni mustaqillikdan soʻng yanada intensivlashdi. Mustaqil Oʻzbekiston Respublikasining dastlabki yillarida madaniyat va sanʼatni rivojlantirish boʻyicha koʻplab farmonlar va qarorlar qabul qilindi. 1992-yilda Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining "Musiqqa sanʼati va folklor anʼanalarini saqlash va rivojlantirish" toʻgʻrisidagi farmoni, 2004-yilda "Milliy musiqani

¹ Rasulov, M. (2010). "Oʻzbek milliy musiqasining tarixi". Toshkent: Sharq nashriyoti.

rivojlantirish va yoshlarni musiqiy tarbiyalashda yangi yondashuvlarni joriy etish" haqidagi qarori bu yo'nalishda muhim bosqichlarni tashkil etdi.

O'zbekiston Prezidentining farmonlari va qarorlari milliy ansambllarni shakllantirishda va rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Jumladan, 2018-yilda qabul qilingan "Milliy madaniyatni rivojlantirish, musiqiy san'atni saqlash va yangi istiqbollarni joriy etish" farmoni bo'yicha bir qator amaliyotlar amalga oshirildi. Prezidentning bu kabi qarorlari milliy ansambllarga yangicha yondashuv va rivojlanish uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda.

Xalq cholg'ulari uzoq o'tmishda paydo bo'lganligi haqida juda ko'p ma'lumotlar to'plangan. Ma'lumotlarga qaraganda dastlabki musiqa cholg'ulari eramizdan ancha oldin dunyoga kelgan, deb taxmin qilinadi. Musiqachilikda dastlab urma zarbli cholg'ular paydo bo'lganligi ko'p manbalarda qayd qilingan. Bu, haqiqatga to'g'ri keladi, albatta. Chunki, eng qadimgi mehnat qo'shiqlari ishning ritmik tuzilishi bilan bevosita bog'liq bo'lgan. Kishilar turmush tarzining o'zgarib borishi, madaniy qarashlarning bir muncha rivojlanib borishi, mehnatga bo'lgan munosabatning ijobiylashib borishi natijasida boshqa cholg'ularni paydo bo'lishiga olib keladi. Jumladan, shovqinli cholg'ularni paydo bo'lishi ham insonlar turmush tazi, madaniy qarashlari, mehnatga bo'lgan munosabatning ijobiylashib borishi bilan bog'liq. Shovqinli cholg'ularni paydo bo'lishining asosiy ko'rinishlaridan biri - dastlab ijrochilarning qarsak chalib ritmni ta'kidlashalari orqali shovqinli cholg'ular ta'sirini ko'chaytirganligini misol tariqasida aytish mumkin. Shuningdek, ijrochi ayollarning chapak zarblari o'ziga xos, takrorlanmas, go'zal holatni vujudga keltirgan.

Xalq orasida musiqaga qiziqish bilan qaraydigan kishilarning ortib borishi musiqa asboblari yasaydigan ustalarni paydo bo'lishiga olib keladi. Natijada xalq ustalari tomonidan qamish yoki bambuk poyasidan surnay, hushtak, biroz o'tgach esa nay (bo'ylama, ko'ndalang, ko'p yo'lli), naysimon hushtaklar, shiqildoqlar, chiltorlar (arfa, lira) va kifaralar yasaladi. Vaqt o'tib u cholg'o'lar yanada

takomillashib (ko‘p yo‘lli, shuningdek zamonaviy ko‘p teshikli) naylar yuzaga keladi. Torli-mizrobli va torli-kamonchali musiqa cholg‘ulari paydo ham bo‘ladi. Ulardan saroy a‘yonlarining marosimlarida, harbiy yurishlarida foydalaniladi. O‘zbek xalq cholg‘o‘lari shu tariqa shakllanadi va ko‘p asrlik taraqqiyot davomida o‘ziga xos ijro xususiyatlarini, tovush tusini saqlab qoladi. Nay, suriyay, tanbur, dutor, rubob, g‘ijjak, qobuz kabi cholg‘ular o‘ziga xos tuzilishi va ijro uslublari bilan an‘anaviy shakllarda bizgacha etib keldi.

Tarixdan ma‘lumki, eramizdan avvalgi III–asr o‘rtalarida O‘rta Osiyoning g‘arbiy viloyatlarida Parfiyon(a), sharqida esa Grek-Baqtriya davlatlari tashkil topgan. Eramizning I–asrida O‘rta Osiyoning janubiy qismida esa qudratli Kushon shohligi tarkib topadi, Mahalliy Kushon sulolasn hokimiyati ostida bir qancha davlatlar birlashishi natijasida shaharlar yuksaladi, madaniyat rivojlanadi. Bular o‘z navbatida, yangi-yangi musiqa cholg‘ularining yaratilishi uchun shart-sharoitni yuzaga keltiradi. Demak, aytish mumkinki, arxeologik topilmalardan olingan ma‘lumotlar va yozma manbalarda qayd etilgan ma‘lumotlar shundan dalolat beriadiki, bugungi kunda amaliyotda foydalanib kelinayotga cholg_u asboblarining birmuncha mukammal hamda rang-barang ajdodlari bundan ikki ming yildan oldin O‘rta Osiyoda tarqalgan ekan. O‘sha davrlardagi cholg_ularida ijro etilgan kuylarning mazmun-mohiyati sozanda-ijrochilarning o‘ziga xos yuksak ijodiy yutuqlarida juda nafis, yoqimli, jozibali, o‘ta mazmunli shakllantirilgan. Uzoq o‘tmishda ijro etilgan kuy va qo‘shiqlar o‘sha davrdagi musiqa san‘ati uslubining o‘ziga xos muayyan tarixiy voqeliklarini, o‘ziga xos muhim xususiyatlarini gavdalandirgan. Shularga ko‘ra, cholg_u kuyi xalq musiqiy mohiyatining shaklan mukammal va mazmunan serqirra ifodasi bo‘lgan va hozirgi davrda ham, kelajakda ham shunday ifodalilikda bo‘ladi, albatta.

Cholg‘ular O‘rta Osiyo xalqlari folklorida hamda og‘zaki an‘anadagi professional musiqasida ham yetakchi o_rin tutib, muhim rol o‘ynab kelaganligi bugungi kun amaliyotda ham ma‘lum. Tarixiy manbalardan bilish mumkinki, O‘rta

Osiyo cholg'u asboblari butun Sharq mamlakatlari bo'ylab tarqalgan. Sharq yil nomalarida cholg'u asboblarining xilma-xilligi haqida gap borar ekan, biz undan birinchi navbatda, O'rta Osiyo xalqlarining turmush tarzi va urf-odatlarini, kuy va raqs jo'rligida ijro etiladigan turli xalq marosimlarini tavsiflovchi materiallar, ma'lumotlarni guvohi bo'lamiz. Bular shundan dalolatki, musiqiy g'oya va uning tiliga, ohangning rang-baranglik xususiyatiga, qolaversa badiiy-musiqiy jozibaliliga aynan qadimda asos solingan. O'z navbatida, aynan qadimda cholg'u asboblarining asosiy tarkibi shakllantirilgan hamda sozlarning turli -tuman xillari, ko'rinishlari, ijro usullari belgilangan. Bularning barchasi, cholg'u ijrochilik san'atining qadimgi xususiyatlarini hozirgi davrga qadar saqlab kelganligini, bizgacha yetib kelgan yakkanavoz hamda xalq professional musiqasining rivojlanishi uchun negiz yaratilganligini anglatadi.

Shuni alohida ta'kidlash o'rinliki, milliy cholg'u asboblari xalqning madaniy qadriyati, milliy boyligi, o'ziga xos sevimli va ardoqli ovunchog'i, madaniy dam beruvchi vositasi bo'lgan. Ular ijrochilik san'atining elementlari bilan chambarchas bog'langan. E'tiborli tomonlaridan biri shundaki, ijrochilik san'ati rivojlanishi bilan cholg'u asboblari ham takomillashib, ularning ko'rinishi o'zgarib borgan. Ijrochilik madaniyatining takomillashuvi jarayoni bilan milliy cholg'u asboblarining rivojlanish jarayonining ushbu chambarchasdagi o'zaro munosabati ularni jamiyat musiqiy ehtiyojlariga javob beradigan tarzda takomillashtirish g'oyasini olg'a suradi. Ijrochi o'z san'ati bilan ijodkor (bastakor)da yangi ijodiy niyatlarni yuzaga keltiradi, ayni mahalda «cholg'u asboblari konstruksiyasini takomillashtirishga, ularni o'zlashtirish san'atiga hamda ularning ifoda imkoniyatlarini boyitishga yanada ko'proq ta'sir ko'rsatadi».²

² Ruziyev.D. "Ansaml ijrochiligi". Buxoro Yozuvchilar uyushmasi.

Xulosa qilib aytganda, milliy ansamblarning shakllanishi va rivojlanishining tarixi murakkab va uzoq davom etgan jarayonni tashkil etadi. Hozirgi kunda bu jarayonlar yanada intensivlashmoqda, va O'zbekiston Prezidentining farmonlari va qarorlari, shuningdek, musiqiy ta'lim va madaniy merosni saqlash bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar bu jarayonning kelajakda davom etishiga katta yordam bermoqda. Bu esa yangi avlodning madaniyatli va ma'rifatli shaxs bo'lib kamol topishiga o'z xissasini qo'shmoqda

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rasulov, M. (2010). "O'zbek milliy musiqasining tarixi". Toshkent: Sharq nashriyoti.
2. Tursunov, B. (2015). "Musiqiy ansamblarning rivojlanish bosqichlari". Toshkent: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari (1992-2024). Toshkent: O'zbekiston hukumati.
4. O'zbekiston musiqa san'ati va folklori: Tarixiy tahlil. (2018). Toshkent: Fan nashriyoti.
5. Ruziyev.D. "Ansambl ijrochiligi". Buxoro Yozuvchilar uyushmasi.